Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’analar va marosimlar zamonaviylik sharoitida yo‘qolib ketmayapti, balki yangi shakl va ma’nolarga ega bo‘lmoqda. Ular raqamli muhit, migratsiya, shahar hayoti va yoshlarning dunyoqarashi ta’sirida qayta talqin qilinmoqda. Biroq ularning ijobiy ijtimoiy funksiyasini saqlab qolish uchun isrofgarchilik, dabdababozlik va haddan tashqari ijtimoiy bosimdan voz kechish kerak.

Mavzu bo‘yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. To‘y va marosimlarni ixcham, mazmunli va tejamkor tarzda o‘tkazish madaniyatini mustahkamlash zarur.

2. Ta’lim muassasalarida an’analar va marosimlarning tarbiyaviy ahamiyatini tushuntiruvchi darslar tashkil etish maqsadga muvofiq.

3. Marosimlarni tartibga solishda mahalla institutining roli maslahat, targ‘ibot va ijtimoiy yordam shaklida rivojlantirilishi kerak.

4. Yoshlar orasida milliy an’analarni zamonaviy va ijodiy tarzda targ‘ib qilish uchun ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish zarur.

5. Kelajakda o‘zbek an’analarining yoshlar ongiga, migratsiya jarayonlariga va raqamli madaniyatga ta’sirini empirik tadqiqotlar asosida chuqurroq o‘rganish kerak.

Umuman olganda, an’analar va marosimlar o‘zbek jamiyatining madaniy barqarorligini ta’minlaydigan muhim qadriyatlar tizimidir. Ularni saqlab qolish, ilmiy o‘rganish va zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish milliy o‘ziga xoslikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Durkheim E. The Elementary Forms of Religious Life. Paris, 1912, 647-bet.
[2]. Gennep A. van. The Rites of Passage. Paris, 1909, 288-bet.
[3]. Turner V. The Ritual Process: Structure and Anti-Structure. Chicago, 1969, 213-bet.
[4]. Tylor E.B. Primitive Culture. London, 1871, 973-bet.
[5]. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Paris, 2003, 16-bet.
[6]. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. Toshkent, “Fan”, 2007, 276-bet.
[7]. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1994, 320-bet.
[8]. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq marosimlari va folklori. Toshkent, “Fan”, 2010, 294-bet.
[9]. Qoraboyev U. O‘zbek xalq bayramlari. Toshkent, “Sharq”, 2002, 234-bet.
[10]. Otamurodov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2013, 453-bet.

Naimov Dostonbek Rustamovich (Buxoro davlat universiteti Ijtimoiy falsafa yo‘nalishi 1-bosqich tayanch doktornti; naimovdostonbek1@gmail.com

TURKISTONDA MUSTAMLAKACHILIK SHAROITIDA SHAKLLANGAN SIYOSIY ONG VA TANQID

Annotatsiya. *Ushbu maqola XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida mustamlakachilik sharoitida shakllangan siyosiy ong va tanqid jarayonlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada Rossiya imperiyasining hududni bosib olish va maxsus ma’muriy-harbiy boshqaruv tizimini joriy qilishi natijasida mahalliy siyosiy va ijtimoiy hayot cheklanishi, shuningdek, xalq orasida siyosiy ongning shakllanishi tahlil qilinadi. Maqolada siyosiy tanqidning bir nechta shakllari yoritilgan: milliy-siyosiy tashkilotlar orqali olib borilgan tinch tanqid, diniy-axloqiy g‘oyalar va matbuot orqali jamiyatni uyg‘otish hamda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qarshilik. Shuningdek, mustamlakachilik sharoitida shakllangan siyosiy ongning milliy uyg‘onish, jamiyat taraqqiyoti va siyosiy tafakkur rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *mustamlakachilik, mahalliy siyosiy elita, ziyolilar, siyosiy ong, siyosiy tanqid, Turkiston, milliy uyg‘onish, milliy tashkilotlar, matbuot, diniy-axloqiy g‘oyalar, ma’rifatparvarlik, bosmachilik.*

ПОЛИТИЧЕСКОЕ СОЗНАНИЕ И КРИТИКА, СФОРМИРОВАВШИЕСЯ В УСЛОВИЯХ КОЛОНИАЛИЗМА В ТУРКЕСТАНЕ

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению процессов политического сознания и критики, сформировавшихся на территории Туркестана в условиях колониализма в конце XIX – начале XX века. В статье анализируется, как завоевание региона Российской империей и внедрение специальной административно-военной системы управления привели к ограничению местной политической и общественной жизни, а также к формированию политического сознания среди населения. В статье также рассматриваются различные формы политической критики, включая мирную критику, осуществляемую через национальные политические организации, пробуждение общества посредством религиозно-нравственных идей и прессы, а также вооружённое сопротивление про-*

тив советской власти. Кроме того, анализируется вклад политического сознания, сформированного в колониальных условиях, в национальное пробуждение, развитие общества и эволюцию политической мысли.

Ключевые слова: *колониализм, местная политическая элита, интеллигенция, политическое сознание, политическая критика, Туркестан, национальное пробуждение, национальные организации, пресса, религиозно-нравственные идеи, просветительское движение, басмаческое движение.*

POLITICAL CONSCIOUSNESS AND CRITICISM FORMED UNDER COLONIAL CONDITIONS IN TURKESTAN

Annotation. *This article is devoted to the study of the processes of political consciousness and criticism that emerged in Turkestan under colonial conditions in the late 19th and early 20th centuries. It analyzes how the Russian Empire's conquest of the region and the introduction of a special administrative-military governance system led to the restriction of local political and social life, as well as the formation of political consciousness among the population. The article also highlights several forms of political criticism, including peaceful critique carried out through national political organizations, the awakening of society through religious and moral ideas and the press, as well as armed resistance against Soviet authority. Furthermore, it examines the contribution of political consciousness formed under colonial conditions to national awakening, social development, and the evolution of political thought.*

Keywords: *colonialism, local political elite, intellectuals, political consciousness, political criticism, Turkestan, national awakening, national organizations, press, religious and moral ideas, enlightenment movement, Basmachi movement.*

Kirish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida yuz bergan mustamlakachilik jarayonlari nafaqat siyosiy boshqaruv tizimini, balki jamiyatning ichki tafakkurini ham tubdan o‘zgartirdi. Rossiya imperiyasi tomonidan joriy etilgan harbiy-ma’muriy boshqaruv tizimi mahalliy aholining siyosiy hayotdagi ishtirokini keskin cheklab qo‘ydi, natijada jamiyatda yangi turdagi siyosiy ong va unga xos tanqidiy qarashlar shakllana boshladi. Aynan shu jarayonlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u milliy uyg‘onish, siyosiy tafakkur evolyutsiyasi va jamiyat taraqqiyotining tarixiy ildizlarini anglash imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur davrda shakllangan siyosiy ong va tanqidning mohiyatini, uning qanday omillar ta’sirida yuzaga kelganini hamda qaysi shakllarda namoyon bo‘lganini kompleks tarzda o‘rganish zarurati yuzaga keladi. Chunki mavjud tadqiqotlarda ko‘pincha alohida jarayonlar yoritilgan bo‘lib, siyosiy ong, diniy-ma’rifiy qarashlar va siyosiy tanqidning o‘zaro bog‘liqligi yetarli darajada tizimli tahlil qilinmagan. Aynan mana shu holat mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanish olib borishni taqozo etadi.

Mazkur tadqiqot doirasida e’tibor Turkistonda mustamlakachilik sharoitida yuzaga kelgan siyosiy ongning shakllanish jarayonlari, uning ijtimoiy-siyosiy omillari va turli ko‘rinishdagi tanqidiy faoliyat bilan uzviy aloqasini ochib berishga qaratiladi. Jarayonni chuqurroq anglash uchun, avvalo, Rossiya imperiyasi tomonidan joriy etilgan boshqaruv tizimining mohiyati, mahalliy siyosiy elitaning chetlashtirilishi, diniy va ma’rifiy omillarning ta’siri, shuningdek, jadidchilik harakati va milliy tashkilotlar faoliyati izchil tahlil qilinadi. Shu asosda, siyosiy ongning evolutsion rivoji, ya’ni, ma’rifatparvarlik orqali islohotga intilishdan tortib, keskin qarshilik shakllarigacha bo‘lgan bosqichlar ochib beriladi.

Tahlil jarayonida asosiy e’tibor Turkiston jamiyatida yuzaga kelgan siyosiy ongning o‘ziga xos jihatlari, uning diniy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashuvi hamda siyosiy tanqidning turli shakllarda – matbuot, ma’rifiy faoliyat, milliy tashkilotlar va qurolli qarshilik orqali namoyon bo‘lishiga qaratiladi. Shu orqali jamiyatda shakllangan siyosiy tafakkur va uning tarixiy ahamiyati chuqurroq yoritiladi. Mazkur yondashuv ilmiy jihatdan shunisi bilan ahamiyatliki, unda siyosiy ong va tanqid jarayonlari alohida-alohida emas, balki yagona tarixiy-sotsial tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Natijada mustamlakachilik sharoitida yuzaga kelgan siyosiy tafakkurning milliy uyg‘onish va keyingi davr siyosiy jarayonlariga ko‘rsatgan ta’siri yangicha talqinda ochib beriladi hamda ushbu jarayonlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi ilmiy asosda yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turkistonda mustamlakachilik sharoitida shakllangan siyosiy ong va tanqid masalasi bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, D.Alimova jadidchilik harakati orqali milliy uyg‘onish va siyosiy tafakkur shakllanishini tarixiy jihatdan asoslab beradi [1].

B.Qosimov esa jadid adabiyoti misolida siyosiy va ijtimoiy g‘oyalar evolutsiyasini tahlil qilib, milliy ong rivojida adabiyotning o‘rnini ko‘rsatadi [6].

Mustamlakachilik siyosatining oqibatlari H.Ziyoyev tomonidan keng yoritilib, unda Rossiya imperiyasi boshqaruv tizimining mahalliy jamiyatga ta'siri ochib beriladi [10]. Q.Rajabov tadqiqotlarida esa Turkiston tarixidagi siyosiy jarayonlar va milliy harakatlar tizimli tahlil qilinadi [9]. Xorijiy tadqiqotchilardan A.Khalid jadidchilik va siyosiy ong masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuv asosida o'rganib, uning diniy-ma'rifiy asoslarini yoritadi [5]. H.B.Paksoy esa bosmachilik harakatini mustamlakachilikka qarshi siyosiy tanqidning keskin shakli sifatida talqin qiladi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Turkistonda mustamlakachilik sharoitida shakllangan siyosiy ong va tanqid jarayonlarini yoritishda tarixiylik va tizimlilik tamoyillariga asoslanib, tarixiy-qiyosiy, tahlil va sintez, kontent-tahlil hamda muammoviy-tahliliy metodlardan kompleks foydalanildi, bunda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar izchil tahlil qilinib, siyosiy ong shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar o'zaro bog'liqlikda umumlashtirildi va ilmiy xulosalarning asoslanganligi ta'minlandi.

Tahlil va natijalar. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo hududlari bosib olingach, mustamlakachilik siyosatini amalga oshirish maqsadida maxsus ma'muriy-harbiy boshqaruv tizimi shakllantirildi. Aleksandr II tomonidan tasdiqlangan "Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom" asosida 1867-yil 14-iyulda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Ushbu hujjatga ko'ra, o'lka oddiy guberniya emas, balki harbiy-mustamlaka hududi sifatida boshqarilib, general-gubernator K.P.fon Kaufmanga keng vakolatlar berildi [14]. Natijada hududda to'liq harbiy boshqaruv o'rnatilib, yerlar davlat mulki deb e'lon qilindi va soliq tizimi joriy etildi. Deyarli XIX asrning ikki dekadasi davomida saqlanib kelgan boshqaruv tartibi imperator Aleksandr uchinchi tomonidan 1886-yil 12-iyunda qabul qilingan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom" bilan yanada mustahkamlandi [16]. Mahalliy boshqaruv saqlangan bo'lsa-da, u to'liq ma'muriy nazorat ostiga olindi, yer siyosati esa imperiya manfaatlariga xizmat qildi.

Mahalliy siyosiy elitaning hokimiyatdan chetlashtirilishi bu davrning asosiy xususiyatiga aylandi. Qo'qon xonligi tugatilgach, mahalliy hukmdorlar siyosiy qaror qabul qilish huquqidan mahrum bo'ldi, yuqori lavozimlar faqat rus amaldorlariga berildi, saylov tizimi nazorat ostiga olindi va diniy elitaning ta'siri cheklab qo'yildi. Bundan tashqari, yer-suv masalasidagi tengsizliklar hamda bo'lib boshqarish siyosati iqtisodiy asos yo'qolishi holatida siyosiy ta'sirning ham pasayishiga olib keldi. Umumiy ko'rinishda quyidagilar:

–an'anaviy siyosiy tuzumning tugatilishi;
–yuqori lavozimlarni faqatgina rus amaldorlariga berilishi holati;
–saylov tizimining nazorat ostiga olinishi;
–diniy elitaning ta'sirini cheklash;
–yer siyosati orqali iqtisodiy asosni yemirish, milliy davlatchilik tajribasining uzilishiga, siyosiy vakillik tizimini yo'q qilinishiga, mahalliy aholi siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonidan butunlay chetda qolishiga, keyinchalik, jadidchilik va milliy ozodlik harakatlari paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

Bu jarayonlar siyosiy vakillik tizimining yo'qolishiga va milliy ozodlik harakatlari uchun zamin yaratdi. Ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida siyosiy ong shakllana boshladi va u, ko'pincha, diniy-ma'rifiy asosda rivojlandi. Islom ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutib qolgan holda, mustamlakachilik siyosati "zulm" sifatida baholandi va adolat g'oyalari diniy tushunchalar orqali ifodalandi. Jadidlar bu jarayonda dinni inkor etmay, uni yangilash orqali siyosiy va ma'rifiy islohotlarni ilgari surdilar. Jadidalarning yorqin namoyndasi hisoblangan Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan jaholat tanqid qilingan "Padarkush" dramasi, Abdulla Avloniy axloqiy poklikni millat taraqqiyotining asosi sifatida va ilm olishni diniy farz sifatida talqin qilingan "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari, diniy-ma'rifiy, siyosiy ongning amaliy ko'rinishi tarzida o'z yangi usul maktablarida diniy ta'limni zamonaviy fanlar bilan birlashtirgan Munavvarqori Abdurashidxonovlar buning yaqqol isboti edi. Diniy-siyosiy uyg'unlik matbuotda ham o'z ifodasini topdi. Maqolalar Qur'on oyatlari bilan boshlanar jamiyat taraqqiyoti va ilm olish faoliyati ham hadislar asosida izohlanar edi. Jamiyat taraqqiyoti g'oyasi "Iqro" (o'qi) amri bilan asoslab berildi [17]. Bu diniy dalil orqali siyosiy va ma'rifiy islohotni legitimlashtirish edi. Ziyolilar G'arb taraqqiyotini qabul qilish jarayonida uni islomga zid emas deb, balki moslashtirish mumkin deb hisobladilar hamda axloqiy siyosat tushunchasi borasida siyosiy kurash – axloqiy poklik, halollik va adolat tamoyillariga tayanishi kerak degan g'oyalarni ilgari surdilar. Ziyolilar evolutsion yo'lni afzal ko'rib, qurolli kurashdan ko'ra ma'rifat va islohot orqali jamiyatni o'zgartirishni maqsad qildilar. Ular ta'limni rivojlantirish, qonuniy yo'l bilan huquqlarga erishish va zo'ravonlikdan tiyilish g'oyalarini ilgari surdilar. Jadidlar tomonidan izohlangan:

– "Millat, avvalo, ilmli bo'lmasa, erkinlikni saqlab qola olmaydi" [7];
–"Ma'rifat va tarbiya – siyosiy erkinlikka olib boradigan yo'ldir" [2];

–“Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot masalasidir” kabi fikrlar siyosiy mustaqillikni darhol talab qilishdan ko‘ra, xalqni savodli qilishni birinchi o‘ringa qo‘ydi.

Bu kabi tarixiy xatti-harakatlarni matbuot orqali siyosiy ongni oshirish, teatr orqali ijtimoiy muammolarni ko‘rsatish hamda yangi usul maktablarini ochish orqali amalga oshirish rejalashtirilgan edi.

Bu yondashuv jamiyatni modernizatsiyaga tayyorlab, siyosiy tafakkurning dunyoviylashuviga xizmat qildi.

1917-yil voqealari esa siyosiy tanqidni yangi bosqichga olib chiqdi. “Sho‘royi Islomiya” va boshqa milliy tashkilotlar tinch siyosiy kurash orqali mustamlakachilikka qarshi chiqdi [14]. Keyinchalik, ayrim guruhlar tomonidan qurolli qarshilik – bosmachilik harakati tanlandi [15]. Shu tariqa, siyosiy tanqid diniy-ma’rifiy g‘oyalardan tortib tashkiliy va qurolli shakllargacha rivojlanib, mintaqada siyosiy tafakkur va milliy uyg‘onishning asosini yaratdi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Turkistonda mustamlakachilik sharoitida shakllangan siyosiy ong va tanqid jarayonlari Rossiya imperiyasi tomonidan joriy etilgan harbiy-ma’muriy boshqaruv tizimi, mahalliy siyosiy elitaning chetlashtirilishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklar natijasida yuzaga kelgan murakkab tarixiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonlarda siyosiy ong, dastlab, diniy-ma’rifiy asosda shakllanib, keyinchalik, jadidchilik harakati orqali ma’rifatparvarlik ruhida rivojlandi va bosqichma-bosqich siyosiy tashkilotlar faoliyati hamda qurolli qarshilik shakllarigacha yetib bordi. Natijada siyosiy tanqid turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib, mintaqada milliy uyg‘onish va siyosiy tafakkurning shakllanishiga muhim zamin yaratdi.

Mazkur tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, bir qator takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, Turkistonda siyosiy ong va tanqid masalasini yanada chuqurroq o‘rganishda diniy, siyosiy va ma’rifiy omillarning o‘zaro bog‘liqligini kompleks yondashuv asosida tadqiq etish zarur. Shuningdek, jadidchilik harakati va milliy siyosiy tashkilotlar faoliyatini zamonaviy siyosiy tafakkur shakllanishi bilan bog‘liq holda qayta tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, tarixiy tajribadan kelib chiqib, jamiyatda siyosiy ongni shakllantirishda ma’rifat va ta’limning o‘rni kuchaytirilishi, ilmiy va ommaviy tadqiqotlarda mazkur davr tajribasidan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Alimova D.A. Jadidchilik harakati tarixi. Toshkent, “Fan”, 2006.

(2). Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992, 160-bet.

(3). Abdurahimov M.A., Ergashev Q. O‘zbekiston tarixi (XIX–XX asrlar). Toshkent, “Akademnashr”, 2015, 320-bet.

(4). Abduvohidov A. Jadidchilik va ma’rifatparvarlik harakati. Toshkent, “Akademiya”, 2011.

(5). Khalid Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. University of California Press, 1998.

(6). Qosimov B. Jadidchilik va jadid adabiyoti. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2004.

(7). Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2006, 320-bet.

(8). Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2003 (“Usuli jadid” maktablari tashkil etilishi va ta’lim islohoti masalalari).

(9). Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi (XIX asr oxiri–XX asr boshlari). Toshkent, “Universitet”, 2002.

(10). Ziyoyev H. O‘zbekiston mustamlakachilik davrida. Toshkent, “Sharq”, 1998.

(11). Sodiqov Q. Jadid matbuoti va milliy uyg‘onish. Toshkent, “Akademnashr”, 2010.

(12). Turkiston va Qozog‘iston musulmonlarining qurultoyi (Ittifoqi Muslimin tuzilishi). Oyina.uz, 2023, Onlayn maqola.

(13). O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8–9-jildlar (Jadidchilik, Turkiston Muxtoriyati maqolalari). Toshkent, 2004.

(14). Turkiston o‘lkasi 1917-yil fevral–oktabr oralig‘ida. Toshkent: arxiv.uz, n.n., n.y. Tarixiy ma’lumotlar bo‘limi.

(15). Paksoy H.B. “Basmachi (Basmatchevo) movement and Z.V.Togan. The Turkistan national liberation movement.” Cahiers d’études sur la Méditerranée orientale et le monde turco-iranien, 27, 301–312, 1999. Bosmachilik harakatining milliy ozodlik harakati sifatida sabablari va tuzumini tahlil qiluvchi ilmiy maqola.

(16). O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Toshkent, O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018, 432-bet.

(17). Turkiston jadidlari ma’rifiy faoliyati: g‘oyalari, maqsadlari va vazifalari. D.Saidov. Modern Science and Research. 2025, 4-son, Jadidlarning islomiy va ilm-fan uyg‘unligi, matbuotda diniy-axloqiy g‘oyalar tarqalishi haqida tahliliy maqol.